

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAQTASHNING FUNKSIONAL SEMANTIK MAYDONI

Maxmudova Umida Farxadovna

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7183976>

Annotatsiya: tillardagi maqtashning funksional semantik maydoniga kiruvchi so'zlar, so'z brikmalari hamda frazeologik birliklar.

Kalit so'zlar: maqtashning funksional semantik maydoni, sotsiolingvistika, lingvokulturalogiya, so'z birikmalar, frazeologik birliklar.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning "Ilmu fanning chinakam ravnaqiga erishish uchun tashqi dunyoga eshikni keng ochish kerak" degan fikri fanning muhim muammolarini o'rganish, ijtimoiy ahamiyatga molik sohalarini rivojlantirishda olimlarimizning mas'uliyatini yanada oshiradi.

Bugungi kunda rivojlanib kelayotgan kognitiv tilshunoslik, til va madaniyat, til hamda jamiyat bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologiya, pragmatika, Sotsiolingvistika, etnolingvistika sohalaridagi ilmiy izlanishlar aynan so'zlar, so'z birikmalari hamda frazeologik birliklarning keng qirrali tahlilini taqozo etmoqda.

Maqtashning funksional-semantik maydonining (MFSM) qiyosiy tadqiqi tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir. Hozirda tillarida maqtashning funksional-semantik maydonini yaxlit tarzda o'rganishga bag'ishlangan ma'lumotlar juda ham oz. Tilshunoslikda maqtashning funksional-semantik maydonining sotsiolingvistik, lingvokulturologik va gender xususiyatlarini shu kunga qadar juda ham oz qismi tadqiq etilgan. Bunga sabab uning tilda bajaradigan funktsiyasini boshqa kategoriyalarga tegishli deb qarab kelinishidadir. Tilshunoslikda mazkur muammo o'z echimini topishni talab qiladi.

Mazkur ishda "maydon" termini qo'llanilar ekan, ushbu nomlanishdan foydalanilganda mohiyati bo'yicha bir-biri bilan bevosita semantik jihatdan bog'liq bo'lgan ma'lum bir tildagi so'zlar, so'z birikmalari va frazeologik birliklar maydoni nazarda tutiladi.

"Semantik maydon" termini birinchi bo'lib G. Ipsen tomonidan qo'llanilgan. Tillarni qiyosiy o'rganishda maydon nuqtai nazaridan, nazariy jihatdan yondashish juda ham muhimdir.

A. Abduazizovning ta'kidlashicha, "semantik yoki tushuncha maydoni" ma'nolari bilan bog'langan so'zlarni birlashtiradi. Bunday so'zlar, odatda, bir leksik-semantik guruhni tashkil qiladi.

A. Bondarkoning fikricha, funktsional-semantik maydon (FSM) bir guruhga kiruvchi umumiy semantik funktsiya (yadro) asosida birlashuvchi leksik, grammatik, leksik-sintaktik kabi vositalarni o'z ichiga oladi. FSM quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

a) muayyan FSMga kiruvchi til birliklari umumiy semantik funktsiyaga egadir; b) ularning tarkibida faqat leksik emas, balki grammatik birliklar ham mavjud bo'ladi. Strukturalari jihatidan esa yadro va periferiyalardan tashkil topadi.

Shundan kelib chiqqan xolda maqtash ma'nosini ifodalovchi so'zlar, so'z birliklari va frazologik birliklar bir funktsional semantik maydonni tashkil etadi.

Kognitiv tilshunoslik yo'nalishi maqtash mavzusini o'rganishga xar tomonlama kompleks yondashishni talab etadi. Shu sababli FSMning sotsiolingvistik, gender va lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. FSMning kognitiv mohiyatini, dunyoni ko'rishning maqtashda aks etishini ingliz va o'zbek tillarida o'rganish nixoyatda dolzarbdir. Xolbuki dunyoda xamma narsani faqat qiyoslash orqali anglaymiz. Qiyoslash xar qanday fikr yoki borliqni tushunishning asosidir.

Maqtash boshqa stilistik vositalardan farqli ravishda juda kam tadqiq etilgan. Jumladan, shu kunga qadar ingliz va o'zbek tillarida maqtashning funktsional semantik maydoni lingvokognitiv aspektida alohida monografik yo'nalishyeterli darajada tadqiq etilmagan.

Xulosa qilib aytganda tillarda FSMning sotsiolingvistik, gender va lingvokulturologik xususiyatlari mavzusiga qiyosiy taxlil yordamida yondashish lozim. Bunday yondashuv qardosh bo'lmagan tillarda maqtash ma'nosining ifodalash etilishi va ularning milliy madaniy xususiyatlarini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. inson baxt uchun tug'iladi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.Karimovning xikmatli so'zlaridan. – T.:Sharq, 1998. – 516.
2. Yusupov U.K. “теоретические основы сопоставительной лингвистики”. – T.: fan, AN RUz, 2007, - B. 39 – 48.
3. Abdulazizov. A.A. tilshunoslik nazariyasiga kirish. T.: sharq 2010
4. Bondarkov A.B. “Функциональная грамматика”. – Л.; Наука, 1984
5. Samigova X.B dissertasiya ishi. 2010.